



KLASTER TIZIMI VA UNING PEDAGOGIKADAGI O'RNI

Qodirova Ulfatxon Mamataliyevna

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226641>

Annotatsiya: Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimi yangi innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ushbu yondashuvlardan biri klaster tizimi bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Maqolada pedagogik ta'lim innovatsion klasteri tizimi va uning mazmuni hamda pedagogikadagi o'rni va samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: klaster, ideal, glaballashuv, fiziologiya, psixologiya.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki insonning ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi. Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha bo'lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishning mavzuyidir. Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar davlat idoralari xususiy tashkilotlarga mutaxassislar yetishtirib berilar ekan mazkur tarmoqlar rivoji ham bevosita kadrlar salohiyati bilan bogliq. Oliy ta'lim sohasi har bir mamlakat taraqqiyotining muhim bo'g'ini sanaladi. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlanish konsepsiyasi islohotlari amalga oshirilayotgani bejiz emas.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da ham oliy ta'lim tizimidagi islohotlar alohida korsatib o'tilgan. Mazkur strategiyaning 46-maqsadida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini oshirish tolov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini oliy talim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish ko'zda tutilgan.

Albatta bu sayi-xarakteratlar natijasida yaqin yillarda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar samarasi nafaqat ushbu sohaning o'zi balki mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi boshqa muhim tarmoqlar yuksalishida ham o'z aksini topadi deyish mumkun.

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq zamonaviy talablar, tizimdagi muommolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yetishmasligi bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruriyatini taqozo etmoqda. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida ta'lim subyektlarining, texnologiyalarning va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm bo'lib, u innovatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq.

Bugungi kunda ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarni klaster tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak tarbiyachilarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va bolalar bog'chalari uchun malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Aynan shu maqsadda Andijon davlat pedagogika institutida ham juda katta samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Andijon davlat pedagogika institut rektori Baxtiyor Rasulov rahbarligida Qirg'iziston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro zamonaviy yondoshuvlar, yangi pedagogik



texnologiyalar, ilmiy izlanishlar borasida xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'sh Davlat universitetida tashkil etilgan klaster ta'limi bo'yicha hamkorlikda faoliyat olib borilmoqda. Institut rektori B. Rasulov rahbarligida ikki davlat oliygohlarining ustoz va talabalari o'zaro do'stona aloqalar tashkillanib, metod almashtirish borasida ham turli uchrashuv va tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Uchrashuvlar jarayonida har ikki oliygoh tomonidan o'zlarining ta'lim muassasalari, hamkorlik qilish mumkin bo'lgan yo'nalishlari va o'quv jarayonlari haqida ma'lumotlar beriladi. Talabalar almashinuvi, turli ta'lim va madaniy dasturlar, yozgi va qishki maktablarni hamkorlikda tashkil etish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Asosiy maqsad Oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin aloqalarni o'rnatish, ikki tomonlama manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishdan iborat.

Xususan, bolajak tarbiyachilarni Klaster tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash – bu ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa manfaatdor tashkilotlarning hamkorlikdagi tizimi bo'lib, maqsadi ta'lim sifati va mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirishdir.

Ta'lim klasteri bugungi ta'limda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Ta'lim klasterining asosiy maqsadlari: Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish – o'quvchilar va talabalarni haqiqiy ishlab chiqarish muhitida tajriba orttirishiga imkon yaratish; Innovatsiyalarni joriy etish – zamonaviy ta'lim usullari, texnologiyalar va ilg'or tajribalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, mehnat bozoriga moslashuv – bitiruvchilarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanish – ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi orqali mablag'larni optimal taqsimlash kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim klasteri dunyoning turli davlatlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Germaniyada Dual ta'lim tizimi asosida ishlab chiqilgan klasterlar mavjud. Talabalar ta'lim jarayonida ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'taydi. Volkswagen, Siemens kabi yirik kompaniyalar universitetlar bilan hamkorlik qiladi. Janubiy Koreyada texnoparklar va universitetlar o'rtasida klasterlar tashkil etilgan. Samsung, LG, Hyundai kabi kompaniyalar universitetlar bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlaydi. KAIST universiteti innovatsion klaster markazlaridan biri hisoblanadi. AQSh Massachusetts texnologiya instituti (MIT) va Stanford universiteti kabi muassasalar Silicon Valley va boshqa texnologik klasterlar bilan chambarchas bog'langan. Talabalar ilmiy-tadqiqot loyihalari orqali amaliy bilim oladilar. STEM yo'nalishida katta e'tibor qaratilgan. Xitoyda "University-Industry Collaboration" modeli asosida ishlaydi. Shenzhen va Pekin shaharlarida universitetlar va texnoparklar birgalikda ishlaydi. Huawei, Alibaba, Tencent kabi kompaniyalar yosh mutaxassislarni tayyorlashga investitsiya kiritadi. Finlandiya davlatida ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida kuchli hamkorlik mavjud. Helsinki universiteti va Aalto universiteti innovatsion ta'lim klasterlari asosida ishlaydi. O'qitish jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan. Rossiyada "Universitet 2030" loyihasi doirasida klasterlar tashkil etilgan. IT, texnika va muhandislik yo'nalishida ishlab chiqarish bilan bog'liq klasterlar mavjud. Skolkovo innovatsion markazi bu tizimning eng yaxshi namunalardan biri. Klaster tizimi ta'lim sohasida kadrlar tayyorlashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. U mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni yetishtirishga yordam beradi, innovatsion metodlarni joriy etish imkoniyatini yaratadi va ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlaydi. Shu sababli, uni ta'lim tizimiga joriy qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Klaster tizimi pedagogika sohasida bir necha muhim jihatlarga ega: O'quv yurtlari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. O'quvchilarni mehnat bozori talablariga tayyorlashda samarali usullarni joriy qiladi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini beradi, amaliyot va nazariyani uyg'unlashtirish orqali malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini yaratadi, ilmiy izlanishlar va yangi innovatsion g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi hamda ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu jihatdan olganda, klaster tizimi pedagogikada ta'lim sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvda muhim rol o'ynaydi hamda bu tizim orqali ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi



hamkorlik mustahkamlanadi, shu bilan birga ta'lim jarayoni samarali tashkil etiladi.
Shu sababli ham klaster tizimi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori, 2019., 13-may, PQ 4312 son.
2. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz.” –Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.
3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. / Pedagogika fanlari doktori (Doktor of Science) - 2020. – B. 277.
4. <https://yuz.uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi>
5. <https://www.google.com/search>